



**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI XALQARO JAMOAT FONDI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

**“NAVOIY VA SHARQ RENESSANSI”**  
mavzusida xalqaro simpozium

# **AXBOROT XATI**



**Toshkent – 2024**

**“NAVOIY VA SHARQ RENESSANSI”**  
**mavzusida xalqaro simpozium**  
**AXBOROT XATI**

Buyuk shoir va mutafakkir, davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiy tavalludining 583 yilligi munosabati bilan Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti hamda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti hamkorlikda **2024-yil 9-fevral kuni “NAVOIY VA SHARQ RENESSANSI”** mavzusida xalqaro simpozium o‘tkazilishini ma’lum qiladi.

***Xalqaro simpoziumga quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha maqolalar qabul qilish rejalashtirilgan:***

1. Sharq Renessansi: fan, adabiyot va madaniyat.
2. Tasavvuf she‘riyati va Alisher Navoiy ijodi.
3. Alisher Navoiy adabiy merosining jahon tamaddunida tutgan o‘rni.
4. Temuriylar davrida kitobat san’ati.
5. Alisher Navoiyning ilmiy biografiyasini yaratish muammolari.
6. Jahon navoiyshunosligi: kecha, bugun va ertaga.
7. Navoiy asarlarini xorijiy tillarga tarjima qilish muammolari.
8. Alisher Navoiy va jahon tilshunosligi.
9. Navoiy “Xamsa”si va komparativistika masalalari.
10. Alisher Navoiy va adabiy ta’sir masalalari.

**Maqolalar o‘zbek, rus, ingliz, fransuz, fors va turk tillarida qabul qilinadi.**

Simpoziumda ishtirok etish uchun quyidagilarga e’tibor qaratilishi lozim:

Mutaxassislar **2023-yilning 30-dekabriga qadar** tashkiliy qo‘mitaning elektron manziliga **info@navoifound.uz** ma’ruza matnini yuborishlari so‘raladi. Tashkiliy qo‘mita materiallarni texnik tahrir qilish, shuningdek, maqola qabul qilinmaganda va qaytarilmaganda, bu bo‘yicha izoh bermaslik huquqiga ega.

Tanlab olingan maqolalar “Xalqaro simpozium materiallari” to‘plami sifatida nashr etiladi. Simpozium yakunida ishtirokchilarga to‘plam va sertifikat taqdim etiladi (*Yuqori impakt faktorli jurnalning maxsus soni sifatida ham nashr qilish reja qilingan*).

**Nashr etilgan maqolalar quyidagi bazalarda indekslanadi:**

- *Google scholar*
- *cyberleninka.ru*
- *Crossref*

➤ *Zenodo*

To‘plamda e’lon qilingan har bir maqolaga DOI (Crossref) raqami beriladi.

**Maqolani tayyorlashga qo‘yiladigan talablar:**

Maqola hajmi 12 betdan kam bo‘lmasligi lozim.

Maqola matni Doc formatida, lotin yozuvida, 1 intervalda, o‘ng tomondan — 15 mm, chap tomondan — 30 mm, yuqori va pastdan — 20 mm hoshiya qoldirilib, Times New Roman 14 kegl shriftda tayyorlanadi.

Maqola tuzilishi uchun talablar:

- maqola nomi bosh harflar bilan beriladi;
- muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, lavozimi, ilmiy unvoni, ish joyi, elektron pochta manzili to‘liq keltiriladi;
- annotatsiya (maqolaning qisqacha mazmun va maqsadi, 100 ta so‘zdan kam bo‘lmasligi lozim) **o‘zbek, rus, ingliz** tillarida beriladi;
- kalit so‘z va iboralar 7-10 so‘zdan iborat bo‘lishi kerak;
- maqola mazmuni Kirish (Introduction), Asosiy qism (Main part), Natijalar va muhokama (Results and Discussions), Xulosalar (Conclusions), Adabiyotlar (References)dan iborat bo‘lishi lozim. Adabiyotlar umumiy maqola oxirida keltiriladi. Havolalar sahifada maqolaning oxiridagi adabiyotlardan kelib chiqilgan holda [masalan, *1, b.23*] joylashtirilishi kerak.

**Ma’lumot uchun tel: Office: +998 55 5031441**

**Mob: + 998 88 198-14-41, +998977505401**

**E-mail: [info@navoifound.uz](mailto:info@navoifound.uz), [asyalka@yandex.ru](mailto:asyalka@yandex.ru)**